O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING
KATTAQO'RG'ON FILIALI

Ro'yxatga olindi

"TASDIQLAYMAN"
Direktor:
_____ Sh.R.Urakov
2024 yil "__" _____

AMALIY TILSHUNOSLIK (ROMAN, GERMAN) FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 - Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111800 – Xorijiy til va adabiyoti

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
AT1205	2024-2025	II	5
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		4

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Amaliy tilshunoslik (Roman -german tillari)	60	90	150

I. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi talabalarda tilshunoslik fani, uning bo'limlari, o'rganish obyekti,boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma'lumot berib, chet tilini o'qitishning kommunikativ,integrative va boshqa yondashuvlarini hisobga olib, o'rganilayotgan tillarda muloqot qili shga tayyorlash, talabalarda chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish, tarjima, nutq terapiyasi va nutq patalogiyasi kabi fanlar kiradi.

II Mashg'ulotlar shakli: Amaliy mashg'ulot(A).

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

1. Tilshunoslik fanining tarixi , predmeti va metodi.

- Umumiy tilshunoslik fani doirasida tilning tabiati va mohiyati, til va tafakkur, til va nutq, tilning tarkibiy tuzilishi, til tizimini anglash, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, yozuvning paydo bo'lishi, tillarning morfologik (tipologik) va genealogik tasnifi, tillarni ilmiy o'rganish metodi, tilda shakl va mazmun kabi muammolar urganiladi

2.Til - asosiy aloqa vositasi. Til va tafakkur

- Til nutqqa ziddir. Til bilan nutq asosiy farqi - tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, nutqning esa individual xarakterga egaligidir. Til bilan nutq, albatta, bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisalardir, biri mavjud bo'lmas ekan, ikkinchisi yashay olmasligi keng tarzda misollar va olimlarning fikrlari bilan isbotlab beriladi.

3. Tillar tasnifi.

- Tillar tasnifi muammosi ularni qiyosiy o'rganish vaqtida paydo

bo`ladi va ba`zan qiyosiy o`rganishning pirovard maqsadi deb tasavvur etiladi. Tillar tasnifining 2 asosiy turi mavjud: tillarning genealogik tasnifi va tillarning tipologik tasnifi.

4. Roman - german tillari oilasi. Ingliz va o`zbek tillarining farqlari

- Ingliz tili va o'zbek tili albatta bir tillar oilasiga kirmaydi va shundan bemalol aytishimiz mumkinki bu tillarda juda ham ko'p farqlar mavjud. Bunga misol tariqasida so'z yasalishidan tortib zamonlarida ham o'xshashliklar va farqlar mavjuddir.

5. Fonetika tilshunoslikning bir bo`limi sifatida. Fonetika va boshqa fanlar

- 1Fonetikaning o`rganish ob`ekti va vazifalari.
- 2. Asosiy fonetik birliklar.
- 3.Nutq tovushlari tasnifi: unli va undosh fonemalar.
- 4.Tovushlarning nutqdagi pozitsion va kombinator o`zgarishlari.

6. Ingliz va o`zbek tillarida urg`u turlari

- Urg`uning fonetik tabiatiga ko`ra turlari
- So`z urg`usining darajalari

7. Roman german tillarida unli harflar talaffuzi

- Unli tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Masalan, hozirgi o`zbek adabiy tilida unli tovushlar 6 ta bo`lsa, boshqa turkiy tillarda 8 ta, 10 ta va undan ham ortiqdir. Bu miqdor rus tilida 5 tani, fransuz tilida esa 18 tani tashkil etadi.

8. Undosh tovushlar talaffuzi. Talaffuz qilinmaydigan undosh tovushlar.

- Undosh tovushlar bir necha jihatdan tasnif qilinadi: 1) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra; 2) hosil bo`lish o`rniga (nutq a`zolarining ishtirokiga ko`ra;3) hosil bo`lish usuliga ko`ra;

9. Sirg`aluvchi undosh tovushlar talaffuzi. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar talaffuzi

- Talafuzdagi xatolar, ikki til doirasida solishtirish va o`quvchilarda ko`nikma hosil qilish

10. Talaffuz variatsiyalarini xorijiy film ko`rish orqali tahlil qilish.

- Film orqali talaffuzdagi farqlarni aniqlash, taqqoslash va analiz qilish

11. Tovushlar almashinuvi hodisasi. Yordamchi fe`llarining talaffuzi

Tovush tushishi va ortishi hodisasi;

Yordamchi fe`llarning roman german tillarida foydalish o`rni;

O`zbek tiliga taqqoslash;

12. Yozuv. Yozuv taraqqiyotining asosiy bosqichlari.

- Ilk davr; O`rta davr; So`ngi davr;

13. Leksikologiya fan sifatida. Leksikologiya va uning bo`limlari.

- 1.Leksikologiya haqida tushuncha;
- 2.Leksikologiyaning turlari;
- 3.Leksikologiya so`z ha q idagi ta`limot;
- 4.Tilning asosiy lug`at fondi va umumiy lug`at tarkibi;
- 5.Asosiy lug`at fondi bilan umumiy lug`at tarkibining o`zaro aloqasi va farqi;

14. So`z va leksika. Leksik ma`no va uning turlari.

- Leksema va uning tarkibiy qismlari;
- Lisoniy sistema va uning mikrosistemalari;
- Lug`aviy tizimdagi pog`onalanish bosqichlari;
- .Leksik sistema va uning mikrosistemalari;

15. So`z va so`z oilasi. So`z yasalishi

- So`z yasalishi ma`nosi;
- So`z yasalishi tipi va qolipi;
- So`z yasalishi me`yori;
- So`z yasalishi imkoniyati;
- So`z yasalishidagi mahsullilik mahsulsizlik hodisasi;
- So`z yasalishining asosiy usullari, vositalari va boshqa shu asosda tilning so`z yasalishi tizimi tahlil etiladi.

16. Konversiya haqida tushuncha

- So`z yasash usullari;
- Konversiya, so`z turkumlari;
- Semantik-grammatik, subyektivatsiya, adyektivatsiya, adverbializatsiya, verbikatsiya;

17. Semasiologiya. ko'p ma'nolilik

- Monosemiya;
- Polisemiya;
- O'z ma'no , ko'chma ma'no;

18. Ma'no ko'chish turlari.

- Metafora;
- Metonomiya;
- Sinekdoha;
- Vazifadoshlik;

19. Tilning lug'at tizimi

- Leksikografiya lug'atlar tipologiyasini ishlab chiqadi. Shu jihatdan bir tilli leksikografiya (izohli va boshqa lug'atlar), ikki tilli leksikografiya (tarjima lug'atlar), o'quv leksikografiyasi (til o'rganishga maxsuslashgan lug'atlar), ilmiy-texnik leksikografiya (terminologik lug'atlar) o'zaro farqlanadi.

20. Terminologiya. Leksikografiya

- Tilshunoslikning lug'atchilik nazariyasiga oid sohasi, lug'atshunoslik; Lug'at turlari va ularni tuzishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

21. Frazeologiya. Idiomalar

- Frazeologizm;
- Frazeologik birlik;
- Frazema

22. Grammatika fan sifatida

- Grammatika va uning tarkibiy qismlari;
- Grammatik kategoriyalar va ularning ifodalanish usullari;
- Grammatik shakllarning turlari va grammatik kategoriyalar munosobati;

23. So'zning morfologik va etimologik tarkibi

- Mustaqil so'z turkumlari;
- Yordamchi so'zlar;
- Oraliqdagi soëzlar (alohida olingan so'zlar).

24. Yordamchi so'zlar: predlog, ko'makchi, artikl, yuklama bog'lovchi.

- **Yordamchi so'zlar** - mustaqil gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan, yordamchi ma'no va funksiyada qo'llanadigan so'zlar. Bular gapda mustaqil bo'lak bo'lib keluvchi so'zlarni bog'laydi yoki ularga grammatik (sintaktik) tavsif beradi;

25. Modal so'zlar

- So'zlovchining o'z fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrning aniqligi, rostligi, gumonli yoki shartliligini ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlar; shaklan o'zgarmasligi bilan tavsiflanadi, gap bo'lagi vazifasida kelmaydi, gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi.

26. Bog'lovchi va uning vazifalari.

- Yasalish usullari;
- Ma'noviy shakli;
- Gapdagi o'rni;

27. Yuklama va ko'makchi ingliz va o'zbek tillarida

- Yasalish usullari; Ma'noviy shakli; Gapdagi o'rni;

28. Grammatik kategoriyalar. Morfologiya.

- So'z turkumlari haqida umumiy tushuncha va farqli jihatlarni ko'rsatib berish;

29. Egalik va kesimlik shakllari

- Ot kesim va fe'l kesim;
- Roman german tillarida kesimlik tushunchasi va hosil bo'lish usullari;

30. Sintaksis. Tilning sintaktik birliklari. Gap turlari.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

II semester

1. Tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar

2. Turli tillardagi fonetik hodisalar (Ibrat farzandlari)

3. Turli tuzilishli tillarda so`z yasash usullarining umumiy va farqli jihatlari

4. Etimologiya. Ilmiy etimologiya, xalq etimologiyasi va "yolg`on etimologiya"

5. Turli tillarda so`z turkumlari va ularni guruhlash tamoyillari.

6. Gapning aktual bo`linishi. Sintaktik inversiya.

7. Yozuvning tarixiy va zamonaviy turlari

8.Tillarning genealogik tasnifi

9. Til aloqalari. Billingvizm va interferensiya.

10. Roman-German tillarining tarixiy rivojlanishi

11.Urg`uning yasalishi (Ibrat farzandlari)

12.Leksika va Leksikografiya

13. Unli harflar talaffuzidagi xatolar (Ibrat farzandlari)

14.Talaffuzda ishtirok etmaydigan undosh tovushlar (Ibrat farzandlari)

15.Yordamchi fe`llarning ishlatilishi (Ibrat farzandlari)

16. Ko`p ma`noli so`zlar (Ibrat farzandlari)

17. Fraziologiya va fraziologik misollar (Ibrat farzandlari)

18. Inversiya (Ibrat farzandlari)

19. Predlog haqida umumiy tushuncha (Ibrat Farzandlari)

20. Bog`lovchi, yuklama va ko`makchi (Ibrat farzandlari)

21. So`z turkumlari roman german tillari misolida

22. Gap turlari va ularning sintaktik sifatlanishi (Ibrat farzandlari)

23. Tillarning o`zaro hamkorligi va rivojlanish qonuniyatlari.

3. **V. Fan o`qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Amaliy tilshunoslik fanini o`zlashtirish jarayonida talaba:

- O`rganilayotgan chet tilining dunyodagi tillar o`rtasidaegallab turgan o`rnini to`g`ri tushunib olish;
- O`rganilayotgan roman yoki german tilining qachon, qayerda, qaysi bobo

	nidan paydo bo`lganligi haqida ilmiy axborot berish; • O`rganilayotgan roman yoki german tilining fonetik,grammatik va leksik-semantik qonuniyatlarini bilishi va qo`llay olish ko`nikmalarini egallashi lozim.
4.	**VI. Ta`lim texnologiyalari va metodlari:** • Guruh va juft bo`lib ishlash (group and pair work); • Dialogik yondashuv (making a dialogue); • Muammoli vaziyat yechimi (creative problem solving); • Test savollari (test questions • Munozara (discussion); • Kviz kartochkalar (quiz cards).
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid mavzularni to`liq o`zlashtirish, tahlil natijalarini to`liq aks ettira olish, o`rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy baho sinov asosida qo`yiladi.
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1.Ferdinand de Sossyur. "Umumiy tilshunoslik kursi" Toshkent. "Navoiy Universiteti" 2019. Ibodulla Mirzayev tarjimasida. 2. M.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish".Darslik.Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2009. 2. M.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish". Darslik. Toshkent. "O'qituvchi" 1992. 3. A.Sodiqov., A.Abdiazizov...Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish". Toshkent. "O'qituvchi" 1981. 4. A.Shaykevich, идр. "Введениевязыкознание". Toshkent. "O'qituvchi" 1990. 5. A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. T. "O`qituvchi" 2002. 6. Sh.K.Karimov. "Tilshunoslikka kirish": kursidan praktikum. Toshkent 1987 **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. A.P.Hojiyev. "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati". Toshkent 1984. 2. В.Н. Колухов. "Введение в языкознание" М. 1987. 3. В.М.Солнцев. "Язык как системно-структное образование", М. 1972. 4. N. Nematov , O.Bozorov. "Til va nutq". Toshkent. "O'qituvchi" 1993.

	5. I.Qo'chqortoyev. va.b. Tilshunoslikka kirish. T. "O'qituvchi" 1976 **Axborot manbalari (saytlar):** 1. https:// www.collegesidekick.com/study-docs/841422 2. https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar 3. www.better-english.com\exerciselist.htm 4. https://learnenglish.britishcouncil.org/grammar/english-grammar-reference 5. www.englishclub.com\index.htm
7.	Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali kengashining 2024-yil __-_____dagi __-sonli bayonnomasi bilan maqullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: Sh.R.Berdiqulova – SamDU Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** Murodova M. - SamDU Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi